

O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDAGI O‘ZGARISHLAR

Choriyeva Malika

Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada asosiy masala hozirgi davr ijtimoiy-siyosiy dolzarb masalalariga to‘xtalib o‘tish. Avvalo, birinchi masala ta’lim-tarbiya sohasi, ilm-fan innovatsiyalarini rivojlantirish, yoshlar tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish, bu yo‘lda ma’naviy-ma’rifiy sohani isloh qilish haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Annotation:

In this article the main issue is focused on analysis of current socio-political problems. Initially, the first problem is our education field, development of scientific innovation, shaping the thinking of today's youngster with enlightenment, in this way spiritual and educational fields will be discussed

Kalit so‘zlar: Yoshlar, sifatli ta’lim, siyosiy ong, huquqiy madaniyat, sharqona ta’lim, huquqiy ta’lim-tarbiya, ma’rifat.

Key words: Young people, quality education, political mind, legal culture, oriental education, legal education.

Davlatimiz avvalo, ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, bu borada yoshlar ongini, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishni maqsad qilib belgilab oldi. Bu borada davlat yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni ta’kidlab o‘tadi.

Zotan, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalashni eng muhim vazifaga aylantirish masalasi ham yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunimizda ham aks etgan. Chunki, davlatimizning taraqqiyotining yangi bosqichiga olib chiqish, barcha kuch-g‘ayratni birlashtirish va fidokorona mehnat qilish orqali Yangi O‘zbekistonni, pirovardida, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish mumkin. Bu poydevor Yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya mutanosibligini ta’minlashda qator omillarni nazarda tutishi lozim. Fuqarolik mas’uliyati va zamonaviy dunyoqarashga ega ma’rifatli, barkamol avlodni tarbiyalash birinchi o‘rinda turadi. Mana shu asosiy maqsad bizni taraqqiyotning navbatdagi bosqichiga eltadi.



Ya'niki, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasi ham tasodifiy emas, balki tub tarixiy qiyofamizni dunyoga namoyon qiluvchi omil ekanini unutmash kerak. Shu bilan birga, ta'lim-tarbiya uzviyligini ta'minlashda ilm, ma'rifiy makon va zamonning o'rni hamda ahamiyatini ko'rib chiqish, uning o'zagini tashkil qiluvchi tarixiy-ma'naviy omillarini sanab o'tish o'rinli. Xususan, Turon zamini, birinchi va ikkinchi Renessans beshigi bo'lganini ortiqcha ta'rifu tavsiflashga zarurat yo'q.

Dunyo xalqlari tarixida ma'naviyat va marifat masalalariga har doim alohida e'tibor berib kelingan. Shu jumladan, yurtimiz O'zbekistonda ham ma'naviyat va ma'rifat masalalari davlat siyosati darajasiga olib chiqilmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning " **Jamiyat hayotining tanasi iqtisod bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir** " ¹

Uchinchi Renessans ta'lim tizimiga asoslandi. Ya'niki, birinchi va ikkinchi Renessans singari hududni kengaytirish uchun emas, inson tafakkuri, ongini kengaytirishni oldiga maqsad qilib oldi. Bu yo'lda davlatimiz bir qancha bosqichlarni jamiyatga tatbiq qildi.

- Texnologik inqilob;
- Ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlarini uzluksiz isloh qilish;
- Yuksak rivojlangan raqamli smart iqtisodiyotga o'tish;

Yangi Renessans bu- inson manfaatlariga asoslangan jamiyat barpo qilishdir. Ya'ni inson-Renessans yaratuvchisi. Har qanday buyuk rejalar, buyuk g'oyalar, inson ehtiyojlari, turmush yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma'naviy komoloti bilan bevosita bog'lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Aks holda barchasi havoyi orzu havasligicha qolib ketadi. Uchinchi Renessans g'oyasining tub zamirida ilm-fan, ta'lim yo'li turibdi. Bu yo'ldan ma'rifat bilan chiqib olish buyuk davlat kafolatini ta'minlab beradi. Davlatimiz tomonidan maktab tizimini tubdan isloh qilish ishlari yo'lga qo'yilganini ko'rishimiz mumkin. Bu nimalarda yaqqol namoyon bo'ldi. Masalan: O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi vosita darsliklar yangi bosqichga o'tdi. Oldingi nazariyalar o'rnini amaliyot egalladi. Darslik mavzulari o'quvchini yangilik yaratishga, fikrlashga undovchi g'oyalar bilan boyitildi. Bu esa o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham bir qancha qulayliklar keltirib chiqardi. Ya'niki, o'quvchini fanga qiziqtirish uchun yaxshi usul bo'lib tanlandi. Va bu usul o'zini rag'batlantirishni boshlab yubordi. Inson qiziqishini inobatga olish, unga to'g'ri yo'nalish ko'rsatish albatta ta'lim sohasi bilan bog'liq. Bundan tashqari, yangi AKT, nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, sun'iy intellekt yaratish va shu kabi

¹ Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.O'zbekiston, 20016 B-8



yo‘nalishlardagi vazifalar ham e‘tibordan chetda qolmasligi zaruriyati tug‘iladi. Prezidentimiz ham o‘z nutqlarida, buyuk yunon olimi Aristotelning “ Vatan taqdirini yoshlar tarbiyas, ilm-u ma‘rifati hal qiladi”, degan so‘zlarini keltiradi².

Zamonaviy ta‘lim zamon talabi darajasiga ko‘tarilmoqda. Zamonaviy davlat maqomiga chiqish uchun faqatgina inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali erishish mumkinligiga aniqlik kiritildi. Sababi, shiddatli ilmiy-texnik taraqqiyot malakasiz ishchiga ehtiyojni keskin kamaytirib yubormoqda. Qaysidir paytlarda insonga ishchi kuchi, mehnat resurslar sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi davrga kelib insonning iqtisodiy jarayonlarga ta‘sir etish ko‘lami tobora kengayib bormoqda. Inson endi ishlab chiqarishning qo‘shimcha resursi emas, balki o‘z qobiliyati bilan ishlab chiqarishni tashkil etuvchi, yangi innovatsiyalarni yaratuvchi noyob resursga aylandi. Ilmli, ma‘rifatli yosh avlod buyuk davlat bunyodkoridir.

Sharq donishmandlari aytganidek “ Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir”!

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash lozimki, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma‘rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Ta‘limdagi bu o‘zgarishlar shunchaki bir necha yilga mo‘ljallangan loyihalar emas balki uzoq istiqbolni o‘z ichiga olgan, mamlakatning buguni va ertasiga xizmat qiladigan islohot bo‘lishi kerak.

Demak, Yangi O‘zbekistonda yoshlarni ilmli, bilimli qilish, ularni raqobatdosh kadrlar qilib tayyorlash, kelajakka ishonch bilan kirib borishi uchun ustuvor ahamiyat qaratilayotgani bejiz emas. Zamonaviy yuksalish sari qadamlar ta‘lim dargohlari ostonalaridan boshlanayotganining boisi ham shunda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-yil 2026-yillarga mo‘jallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: -“Ozbekiston”, NMIU, 2017.-488 b
3. Mirziyoyev Sh.M Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan birga davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-j.-T.: -“O‘zbekiston” NMIU, 2017.-592 b
4. Qalandar Abdurahmonov, Akademik “Yangi O‘zbekiston” gazetasi N/178, 2022-yil 31-avgust.

² Shavkat Mirziyoyev 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan. Jamiyat-01 oktabr 2020..

